UNIVERSITETLARDA KONSALTING XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sagieva Moldir Orazbay qizi
University of innovation technologies (Nukus sh.) dotsenti v.b., iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori
https://doi.org/10.5281/zenodo.21240068

Annotatsiya. *Ushbu maqolada universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish zaruriyati, mavjud imkoniyalari va ularni o‘ziga xos xususiyatlari bayon etilgan. Shuningdek, universitetlarda konsalting xizmatlarini samarali rivojlantirish yuzasidan xulosa va takliflar keltirilgan.*

Аннотация. *В данной статье описывается необходимость развития консультационных услуг в университетах, их текущие возможности и специфические особенности. Также представлены выводы и предложения по эффективному развитию консультационных услуг в университетах.*

Abstract. *This article describes the need for the development of consulting services in universities, their current capabilities and their specific features. It also presents conclusions and proposals for the effective development of consulting services in universities.*

Kalit so‘zlar. *Universitet, xizmat, konsalting xizmati, innovatsiya, texnologiya, salohiyat.*

Ключевые слова. *Университет, услуга, консультационная услуга, инновации, технология, потенциал.*

Key words. *University, service, consulting service, innovation, technology, potential.*

Kirish. Zamonaviy global iqtisodiyot va bilimlar jamiyatida universitetlar ta’lim beruvchi va ilmiy tadqiqot olib boruvchi muassasa, shuningdek innovatsiyalar, texnologiyalar transferi hamda konsalting xizmatlarini ko‘rsatuvchi muhim markazga aylanib bormoqda. Ayniqsa, bugungi kunda global raqobat, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish va mehnat bozori talablarining o‘zgarishi universitetlar oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Universitetlar endilikda faqat ta’lim va ilmiy tadqiqotlar bilan cheklanib qolmasdan, bilim va ilmiy salohiyatni amaliyotga joriy etuvchi faol sub’ekt sifatida namoyon bo‘lishi zarur. Shu nuqtai nazardan, universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu borada konsalting xizmatlari orqali universitetlar o‘z ilmiy salohiyatini amaliyotga tatbiq etadi, real sektor bilan hamkorlikni kuchaytiradi va qo‘shimcha moliyaviy manbalarni shakllantiradi. Shu bois, universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masala sifatida ta’lim sifati, ilmiy tadqiqotlar samaradorligi va jamiyat ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Adabiyotlar tahlili. Universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish va ularning o‘ziga xos xususiyatlari qator tadqiqotlarda o‘rganilgan. Xususan, ba’zi tadqiqotlarda konsalting xizmatlari bozorining tarixiy kelib chiqishi va bosqichlari ko‘rib chiqiladi [1]. Yana bir tadqiqotlarda konsalting xizmatlari bevosita axborot va axborot xizmatlari asosida amalga oshirilishi qayd qilinadi. Jumladan, bu borada axborot-konsalting xizmatlarini rivojlantirishning ilmiy asoslari tahlil qilingan va konsalting xizmatlarining turizmdagi o‘rni o‘rganilgan [2]. Boshqa tadqiqotlarda esa konsalting xizmatlari bozori tahlili keltirilgan. Ya’ni, unda konsalting xizmatlarining jadal rivojlanishiga hissa

qo‘shadigan omillar tarkibi aniqlangan [3]. Boshqa tadqiqotda esa oliy ta’lim muassasalarida konsalting faoliyatining rivojlanishi chuqur o‘rganilgan. Xususan, unda ta’lim sohasida konsalting xizmatlarining mohiyati, turlari va o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan [4]. Uzoq xorijiy tadqiqotlarda esa bilimlarni ishlab chiqarish va almashish, bilim ishtirokchilari va ularning davlat ishidagi joylashuvi o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganilgan. Aniqroq qilib aytganda, ushbu unsurlar tuzilishini kuzatish uchun konsalting xizmatlarini ko‘rsatish masalalari qayd qilingan [5]. Yana bir o‘rganilgan manbalarda esa maslahat olish bevosita universitet fakultetlari doirasida amalga oshirilishi aniqlangan. Unga ko‘ra, maslahat olish imkoniyatlari fakultetning o‘z ishlaridan qoniqishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [6].

Tahlil va natijalar. Konsalting - tashkilotlar, korxonalar yoki shaxslar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan professional maslahat, tahlil va tavsiyalar berish faoliyatidir. Konsalting xizmatlari boshqaruv, moliya, marketing, IT, huquq, ta’lim, innovatsiya va boshqa sohalarni qamrab oladi.

Ayniqsa, universitet konsaltingi esa professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va ekspertlarning ilmiy bilimlari va tajribasiga asoslangan holda tashqi buyurtmachilarga xizmat ko‘rsatishidir. Bu borada universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish ilmiy bilimlarning amaliyotga tatbiqi, professor-o‘qituvchilarning malakasi va tajribasini oshirish, talabalarni real loyihalarga jalb etish, universitetning moliyaviy barqarorligini ta’minlash hamda universitet nufuzini oshirish kabi afzalliklarni yaratib beradi. Shularga muvofiq, universitetlarda konsalting xizmatlari quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

- ilmiy-texnik konsalting. Ilmiy-texnik konsalting universitetlarning ilmiy salohiyatiga asoslanadi va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish, innovatsion mahsulotlar yaratish va texnologik muammolarni hal etish kabilarni o‘z ichiga oladi.

- boshqaruv va strategik konsalting. Ushbu yo‘nalish strategik rejalashtirish, tashkiliy tuzilmani optimallashtirish, kadrlar boshqaruvi va samaradorlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar kabilarni o‘ziga qamrab oladi.

- ta’lim konsaltingi. Ta’lim konsaltingi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, ta’lim sifatini baholash, pedagogik texnologiyalarni joriy etish va malaka oshirish kurslari tashkil etish kabi xizmatlarni o‘z ichiga oladi.

Biroq, universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirishda quyidagi yo‘nalishlardagi muammolar mavjuddir:

- huquqiy va tashkiliy muammolar. Ularning tarkibiga me’yoriy-huquqiy bazaning yetarli emasligi, byurokratik to‘siqlar va moliyaviy mustaqillikning cheklanganligi kabilar kiradi.

- kadrlar va motivatsiya muammolari. Bu o‘z ichiga professor-o‘qituvchilar bandligi, konsalting faoliyati uchun rag‘bat yetishmasligi va amaliy tajribaning kamligi kabilarni oladi.

Shuningdek, universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish quyidagi omillarga ajratiladi:

- ilmiy salohiyat va kadrlar bazasi. Ya’ni, konsalting xizmatlarining muvaffaqiyati universitetdagi ilmiy kadrlar salohiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Bu holatda professor-o‘qituvchilar tajribasi, ilmiy darajasi va amaliy bilimlari asosiy resurs bo‘lib hisoblanadi.

- moddiy-texnik baza. Unga asosan, zamonaviy laboratoriyalar, axborot texnologiyalari, kutubxonalar va ilmiy infratuzilma konsalting xizmatlarining sifatini oshiradi.

- tashqi hamkorlik. Unga ko‘ra, davlat tashkilotlari, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik konsalting xizmatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shulardan kelib chiqib, universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ajratiladi:

- maxsus konsalting markazlarini tashkil etish. Bu borada universitetlarda konsalting markazlarini, innovatsiya va transfer ofislarini va startap inkubatorlarni tashkil etish zarur. Ushbu tuzilmalar konsalting xizmatlarini tizimli va professional asosda amalga oshirish imkonini beradi.

- raqamli konsalting xizmatlarini rivojlantirish. Unga ko‘ra, raqamli texnologiyalar asosida onlayn maslahatlarni hamda masofaviy ekspertiza va raqamli platformalar orqali konsalting xizmatlarini yo‘lga qo‘yish zarur.

- talabalarni konsalting jarayonlariga jalb etish. Bu bo‘yicha talabalar amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar, real loyihalarda ishtirok etadi va mehnat bozoriga tayyor holda chiqadilar.

Fikrimizcha, universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi (1-jadval).

1-jadval

Universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish asoslari

№	Rivojlantirish yo‘nalishlari	Asosiy mazmun	Amalga oshirish mexanizmlari
1	Konsalting markazlarini tashkil etish	Universitet huzurida maxsus konsalting tuzilmalarini yaratish	Konsalting markazi, innovatsiya ofisi va transfer markazini tashkil etish
2	Ilmiy-texnik konsalting	Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish	Laboratoriyalar, ilmiy guruhlar va shartnomalar asosida ishlarni bajarish
3	Boshqaruv va strategik konsalting	Tashkilotlar uchun boshqaruv bo‘yicha maslahatlar berish	Ekspert guruhlar, tahlil va audit xizmatlari
4	Ta’lim konsaltingi	Ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha xizmatlar	O‘quv dasturlarini ishlab chiqish va treninglar o‘tkazish
5	Raqamli konsalting	Onlayn va masofaviy maslahatlar berish	Raqamli platformalar, vebinarlar va onlayn maslahat berish
6	Talabalarni konsalting jarayoniga jalb etish	Amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish	Loyiha asosida ta’lim va startaplarni yaratish
7	Xalqaro hamkorlik asosida konsalting	Xalqaro loyihalar va grantlarni yaratish	Qo‘shma loyihalar va ekspert almashinuvini yo‘lga qo‘yish
8	Moliyaviy va investitsiya konsaltingi	Biznes-rejalar va investitsiya tahlilini amalga oshirish	Iqtisodiy tahlil va moliyaviy modellashtirish
9	Marketing va PR konsaltingi	Bozor tahlili va brend rivojini ta’minlash	Marketing tadqiqotlari va strategiyalarni shakllantirish
10	Huquqiy konsalting	Huquqiy maslahatlar	Yuridik ekspertiza va shartnomalar tuzish

Ushbu 1-jadval ma’lumotlari universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish ko‘p qirrali va tizimli jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Avvalo, konsalting markazlarini tashkil etish universitetlar uchun institutsional asos yaratib, xizmatlarni markazlashtirish va professional darajada

ko‘rsatish imkonini beradi. Bu esa konsalting faoliyatining barqarorligi va samaradorligini ta’minlaydi.

Ilmiy-texnik konsalting yo‘nalishining rivojlanishi universitetlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni amaliyot bilan uzviy bog‘lashga xizmat qiladi. Natijada, innovatsion mahsulotlar, yangi texnologiyalar va intellektual mulk ob’ektlari yaratiladi. Ushbu jarayon universitetlarni innovatsion iqtisodiyotning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Boshqaruv, moliyaviy va marketing konsaltingi kabi yo‘nalishlar esa universitet ekspertlarining iqtisodiyotning real sektori bilan hamkorligini kuchaytiradi. Korxonalar uchun ishlab chiqilgan strategik tavsiyalar ularning raqobatbardoshligini oshirishga va boshqaruv qarorlarining sifati yaxshilanishiga olib keladi. Bu bilan universitetlar uchun qo‘shimcha moliyaviy tushum manbalari shakllanadi.

Ta’lim konsaltingi va talabalarni konsalting jarayonlariga jalb etish ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Talabalarning amaliy loyihalarda ishtirok etishi ularda kasbiy ko‘nikmalarni shakllantiradi, mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Bu esa bitiruvchilarning ishga joylashish ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi.

Raqamli va xalqaro konsalting xizmatlarining rivojlanishi universitet konsaltingi geografiyasini kengaytiradi. Onlayn platformalar orqali xizmat ko‘rsatish vaqt va xarajatlarni qisqartiradi, xalqaro hamkorlik esa ilg‘or tajribalarni joriy etish va universitet nufuzini oshirish imkonini beradi.

Xulosa. Universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu jarayon ilmiy salohiyatni amaliyot bilan bog‘lash, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shish imkonini beradi. Bu borada tizimli yondashuv, zamonaviy boshqaruv va xalqaro tajribadan foydalanish universitet konsalting xizmatlarining samaradorligini oshiradi. Shularga muvofiq, universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish uchun konsalting xizmatlarini innovatsion iqtisodiyotning muhim bo‘g‘iniga aylantirish, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish va universitetlar moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadga muvofiq. Chunki, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, xususiy sektor bilan hamkorlik va raqamli texnologiyalar ushbu jarayonning asosiy drayverlari bo‘lib namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xolbutayeva Sh.A. Konsalting xizmatlarini rivojlantirishda xorij tajribasini O‘zbekiston Respublikasida tatbiq etish masalalari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-elektron jurnali, №4, iyul-avgust, 4/2018 (№00036). - 1-8 b.
2. Yuldashev K.Sh. Turizm sohasida axborot-konsalting xizmatlar ko‘rsatishni takomillashtirish yo‘llari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-elektron jurnali, №5, sentabr-oktabr, 5/2020 (№ 00049). - 362 b.
3. Чудновский А.Д., Жукова М.А., Жуков В.А., Захаров Г.В., Офицерова Н.А. Консалтинговая деятельность с участием высших учебных заведениях в современных условиях. // Инновации и инвестиции, №10, 2022. - с. 108.
4. Захаров Г.В. Консалтинговые услуги как область деятельности высших учебных заведений. // Индустриальная экономика, №4, том3, 2021. - с. 221.

5. Gunter H.M., Mills C. (2017). Consultants and Consultancy in Education. In: Consultants and Consultancy: the Case of Education. Educational Governance Research, Vol4. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-319-48879-0_1
6. https://education.stateuniversity.com/pages/1967/Faculty-Consulting.html